

MAJOZNING UMUMINSONIY XUSUSIYATLARI

Moxiraxon Islomova Inomjonovna,*FarDU Chet tillar kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD*

Annotatsiya. Maqolada ramziy va majoziy obrazlar, allegorik qahramonlar vositasida ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalar, shaxs va jamiyat munosabatlari aks etishi ilmiy tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: obraz, majoz, ramziylik, allegoriya, milliylik, umminsoniylik, asar xarakteri, mavzu, ijodor pozitsiyasi, g'oya, hayotiylik.

Аннотация. Статья посвящена научному анализу отражения социальных и жизненных событий, взаимоотношений между людьми и обществом через символических и образных персонажей, аллегорических героев.

Ключевые слова: образ, образность, символизм, аллегория, национализм, универсализм, характер произведения, тема, творческая позиция, идеи, жизнённость.

Abstract. The article focuses on the scientific analysis of the reflection of social and life events, relationships between individuals and society through symbolic and figurative characters, allegorical heroes.

Keywords: image, figurativeness, symbolism, allegory, nationalism, universalism, character of the work, theme, creative position, ideas, vitality.

Kirish. Badiiy obraz va obrazlilik, adabiy qahramon va reallik munosabatlari, dunyoqarash va badiiy ijod, ijod jarayoni hamda badiiy asarni qabul qilish layoqati kabi qator muammolar umumestetik xarakterga ega. Tabiiyki, san'atning barcha turlariga taaalluqli bu muammolarni adabiyotshunoslik obrazlilik nuqtai nazaridan, badiiy ifoda tarzi bilan bog'lab va uning misolida o'rganadi.

Shundan kelib chiqib, akademik adibimiz Oybek yozgan edi: "Yozuvchi xalq tilining boy xazinasidan istaganicha material oladi. Asarning badiiy to'qimasida yuzlarcha maqollar, maxsus ifodalar, turli gaplar, qochirmalar, so'z o'yinlari yarqiraydi. Mana bular tilni yoqimli, jonli, obrazli bir til qiladi". [3]

Adabiyotlar tahlili. Biz jahon va o'zbek adabiyotida qushlar obrazi tasvirini tahlil etar ekanmiz, adabiy aloqalar tarixi ko'p asrlik tarixga ega ekanligiga yana bir bor amin bo'lamiz. Zero, qushlar obrazlari tasvirlangan allegorik asarlarda sayyor syujetlar uchrashi, har bir xalq muayyan qush obrazini o'z milliy xususiyatlari asosida qaytadan yaratgan. Ayniqsa, "Kalila va Dimna", "Lison-ut tayr", "Zarbulmasal" hamda ayrim folklor namunalari an'analarning davom ettirilgani, rivojlantirilgani yaqqol ko'zga tashlanadi. "Zarbulmasal" bilan tanishganimizda asar Sharq xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan, shuningdek, Navoiy singari so'z san'atkorlari tomonidan qo'llanilgan hikoya ichida hikoya, shuningdek, xalq askiyachiligi usulida yaratilganining guvohi bo'lamiz. Bu esa Gulxaniyning "Kalila va Dimna" singari asarlarni puxta o'zlashtirganidan, o'zidan avvalgi so'z san'atkorlari merosidan yaxshi xabardorligidan dalolat beradi. Ba'zan muallif biror hikoyani mufassal bayon qilmay, uni to'la o'qish uchun kitobxonga manba ko'rsatadi. "Bu so'zning tafsilini bilay desang Jomiyning "Silsilat-uz zahab" ("Oltin

zanjirlar”) asarini o‘qi”, deydi. Yoki Yapaloqqush Ko‘rqushga javoban “Sen menga Kulang va Qarchig‘ay voqeasini hikoya qilursan, men ham Bino va Nobino hikoyatin bilurmen... Bu hikoya bayoni voqesini tilasang “Kalila va Dimna”din top”, deya hind eposini o‘qishga da’vat etadi. [6]

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda majoziy va allegorik obrazlarning umuminsoniy xususiyatlarini ochib berishda qiyosiy-adabiy, struktural-semiotik hamda germenevtik tahlil metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, asar matnlarini interpretatsiya qilish jarayonida kontent-tahlil va kontekstual yondashuv asosida qushlar obrazi orqali ifodalangan badiiy-estetik hamda falsafiy mazmun ilmiy jihatdan o‘rganildi. Tadqiqot davomida nazariy umumlashtirish va tizimlashtirish usullari orqali olingan natijalar umumiy xulosalarga keltirildi.

Tahlillar va natijalar. Shaxsning o‘zi mansub bo‘lgan muhit bilan munosabati qadim-qadimdan ijtimoiy hayotimizda muhim o‘rin tutib kelgan. Bizgacha yetib kelgan folklor namunalari, ayniqsa, ertak va maqollarda, latifa hamda matallarda muayyan shaxs obrazi xalq donishmandligi, zukkoligini aks ettirishda qo‘l kelgan. Masalan, qushlar obrazlari vositasida xalq qahramonlari o‘z salohiyatlarini namoyish etishlarida, ommaning dard-tashvishlarini baralla aytishlarida, muhit bilan munosabatlarini ifodalashda muayyan sahna rolini o‘tagan deyish mumkin.

Shuningdek, odamlarning ruhiy-psixologik holatini belgilaydigan mushohadalar ham qushlar obrazi bilan bog‘liq ironiyali maqollarda yorqin ifodalanadi: “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, “Qarg‘a qag‘ etdi – o‘z vaqtini chog‘ etdi”, “Sinchalak osmon qulasa, tutib qolaman deb, oyog‘ini osmonga uzatib uxlaydi” va hokazo. Darhaqiqat, xalq qadim zamonlardan buyon qushlar timsolidagi hikmatlar orqali hamda o‘z adabiy qahramonlari tilidan nosoz zamona yoki noqis tuzumga zimdan bo‘lsa-da, o‘z munosabatlarini bildirib kelgan.

“Chiranma g‘oz – hunaring oz”, “Xo‘roz men qichqirmasam tong otmaydi, deb o‘ylaydi”, “Chumchuq “pirr” etsa, yuragi shirr etadi”, “Tovuqmiya” singari ibora va matallarda muayyan shaxslarga antipatiya, ya’ni salbiy munosabat ifodalansa, “Qoshlari qaldirg‘och qanotidek”, “Tovusdek tovlanadi”, “Xonishi bulbulni eslatadi”, “Musichadek beozor” singari iboralarda simpatiya, demak, ijobiy munosabatni anglashimiz mumkin.

Kabutar timsolida tinchlik ramzi anglanishi, kalxat obrazi orqali bosqinchlik urushi olib boruvchilar nazarda tutilishi ham qushlar obrazi ijtimoiy hayotimiz va falsafiy tafakkurimizdan mustahkam o‘rin olganligidan dalolatdir.

Kichkintoylarni “polaponim” deya erkalash, bolakaylarni “xo‘roz” deya rag‘batlantirish, mohir chavandozlarni “Qushdek uchadi” deya ta’riflash, ko‘pkari-uloqlarda tajribali ishtirokchini burgutga qiyoslash ham borliqni qushlar vositasida ko‘z oldimizga keltirish azaldan ongimizga singib ketganligini payqash mumkin.

Bolaligimizdayoq “qarg‘a – qaqimchi, chumchuq – chaqimchi” sifatida ertaklar olamiga olib kirishi ham qushlar bilan munosabatimiz juda erta shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Birgina qaldirg‘och bilan bog‘liq talay irim va alomatlar hanuzgacha ongimizda yashab kelmoqda: “Qaldirg‘ochga o‘q tegmaydi”, “Qaldirg‘ochning uyasini buzgan odamning ko‘zini devlar timalaydi”, “Tushinga qaldirg‘och kirsas, ostonangda baxt kutadi”, “Yigit tushida qaldirg‘och ko‘rsa, sevganiga uylanadi”, “Qaldirg‘och aylangan uydagi qizga sovchilar keladi” va hokazo.

Matbuot xabarlariga qaraganda, yaqinda yapon olimlari qushlarning bo‘yniga taqib qo‘yilgan moslamalar orqali ularning nima demoqchi bo‘layotganini aniqlashga muvaffaq bo‘ldilar. Demak, birinchidan, insoniyatning qushlar olamiga qiziqishi va ular bilan muloqotga kirishish ishtiyoqi bugungi kunda ham so‘ngani yo‘q. Ikkinchidan, ajdodlarimiz o‘zlarining falsafiy mushohadalarini, g‘oyaviy maslaklarini qushlar obrazi orqali ifodalashlarida ham muayyan darajada ilmiy asos bo‘lgan.

Ma‘lumki, dunyoning ishlari azal-azaldan munozara va muhokama manbai bo‘lib kelgan. Bu mavzu dunyoqarashi, fe‘l-atvori, yashash tarzi turlicha bo‘lgan odamlarning munosabatlari ifodalash uchun xizmat qilgan. Dunyo kim uchundir tirikchilik manbai bo‘lsa, ayrimlar uchun qalloblik, firibgarlik “san‘ati”ni namoyon etadigan vosita. Shunga yarasha turmushning odamlarga ta‘siri ham turlicha. Shuning uchun ham xalq orasida qadimdan rang-barang dunyo, ijtimoiy muhit haqida ham ijobiy, ham salbiy qarashlar yashab keladi. Xususan, qushlar to‘planadigan joyning bozorga o‘xshatilishi ham bejiz emas.

Yuqorida aytganimizdek, xalq ertaklarining aksariyatida ham qushlar obrazlari vositasida shaxs va jamiyat munosabatlari mavzusini yoritish yetakchi o‘rin tutadi. Chunki voqelik turli toifa kishilar, xilma-xil xarakterlar, betakror voqea-hodisalarni o‘zida mujassamlashtirgan maskan bo‘lib, badiiy asar personajlarining hayotiyiligini, voqea-hodisalar haqqoniyligini ta‘minlaydigan muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Keltirilgan misollardan shu narsa oydinlashadiki, qushlar obrazlari orqali o‘rtaga tashlangan shaxs tushunchasi, uning voqelik bilan munosabatlari, hodisalarning inson ma‘naviyatiga ta‘siri masalalari xalqimizda juda qadimdan shakllangan, qadriyatlarimizning muhim tarkibiy qismi sifatida yashab kelgan. Yurt obodligi, ro‘zg‘or to‘kinligi, inson tadbirkorligi, qolaversa, ma‘naviy-falsafiy xususiyatlar, axloq-odobga doir qarashlar ham muayyan qush timsolidagi shaxsning ijtimoiy muhitdagi o‘rni mavzusiga ulanib ketadiki, bu mavzu ham tarixiy jihatdan, ham falsafiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda, majoziy obraz orqali ifodalangan shaxs tajribasi yoshlarni turmushga tayyorlash, hayot saboqlarini o‘rgatishda ham muhim manba vazifasini bajargan.

Qushlarga allegorik obraz yoki ramziy timsol sifatida murojaat qilish adabiy hamda falsafiy qarashlarni ifodalovchi bir necha asarlarda ko‘zga tashlanadi. Jumladan,

tabobatning mashhur nmoyandasi Abu Ali ibn Sino o‘zining “Qush risolasi” (“Risolat at tayr”) asarida ruh va tana munosabatlari, vujud salomatligiga erishish yo‘llarini qushlar obrazlari orqali majoziy usulda bayon etadi. Tasavvuf falsafasining atoqli vakillaridan bo‘lgan Imom G‘azzoliy esa shu tipdagi asari orqali insonni komillik sari eltuvchi yo‘llarni mushohada etadi. Farididdin Attor esa “Mantiqut tayr” dostonini yaratish bilan vahdati vujud (Haqqa yetishish) falsafasini yuksak badiiy ifodaladi. Alisher Navoiy esa “Lison-ut tayr” (“Qush tili”) dotonida Attor an‘analarini muvaffaqiyatli davom ettirish bilan birga, insoniyatni komillikka eltuvchi yo‘l hamda vositalarni yanada badiiy-estetik ta’sirchan bayon etdi. [2]

Gulxaniy qahramon xarakterini, obraz qiyofasini yaratishda an‘ana tusini olgan yo‘ldan bormaslikka harakat qiladi. Ya’ni salbiy qahramonni butunlay qora bo‘yoqlarda, ijobiy obrazni esa yorqin ranglarda tasvirlashdan chekinadi. U, avvalo, o‘z qahramonlarini yetishtirgan, tarbiyalagan muhit doirasida obrazlar fe‘l-atvori, yurish-turishi, dunyoqarashiga chizgilar topadi. Ularning o‘y-fikrlari, hayotga munosabatlari, odamlar bilan muomalalarida ham ana shu muhit o‘z aksini ko‘rsatib turadi. Asar qahramoni ham oxir-oqibat o‘zi ulg‘aygan muhit, o‘zida shakllangan dunyoqarash, odamlarga bo‘lgan munosabatida adashib, chigal muammolar kelib chiqqach, ko‘pincha nochor va ayanchli holatga tushib qoladi. “Boyo‘g‘li aytdi: “Yomonning kuchi yapaloqqa yetar” degandek anglag‘oning yo‘qmikim, “Anglamay so‘zlag‘on og‘rimay o‘lar, chaynamay yeganlar kavshamay ketarlar”. [6]

Asarning o‘qimishlilik, voqealar tasvirining ishonarli bo‘lishini ta’minlashda asar muallifi o‘ziga xos yo‘l va usullar topgan. Ulardan eng muhimi qahramonlar ma’naviy olamini yoritishda ularning fe‘l-atvoridagi o‘sha davrlar uchun qabul qilinmaydigan qirralaridan foydalanishdir. Bu usul orqali bizga muallif-hikoyachi qahramonni o‘zini-o‘zi izohlashga, o‘zini o‘zi fosh qilishga majbur qiladi. Muayyan muhit nuqtai nazaridan ta’riflangan o‘rinlar ham tashqi ta’sir, ham ichki omillarning qahramon ma’naviyatidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq muhim ahamiyatga ega ekanligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Muallifning ko‘nglidan kechayotgan fikr-o‘ylar tashqi ta’sir natijasida qahramon xarakterida, ongi va tushunchasida paydo bo‘layotgan evrilishlarni yaqqol ifodalab turadi. Tashqi omillardan biri esa uning atrofidagi turli toifa odamlardir. “Alqissa, Yapaloqqushning bir qarg‘a do‘sti bor edi: Sho‘ranul – qushlar ko‘ziga go‘l, o‘z ishiga pishiq, haromzodai tarror, o‘g‘ri mishiq, harifi ayyor, solor davlatmandlar asnofida mumsiki beor, har murda ustida tayyor, yigirmaning beshini mustahiqqa berib, o‘n beshini qo‘yniga urgan, tumshug‘i Zokirboy jomafurushning tumshug‘iga o‘xshar ekan.” [6]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, jahon adabiyoti bilan hamqadamlikda o‘zbek adabiyoti ham davr bilan hamnafaslikda yashab, qushlar mavzusidagi turli janrlarda yaratilayotgan asarlar bilan tobora boyib bormoqda. Taniqli adib Xayriddin Sultonov zamonaviy mavzuda yozgan “Ruh ozodadur” nomli qissasida Muhammadsharif Gulxaniy

obrazini yaratganligida ham ulug' so'z san'atkoriga ehtirom va e'tiborni yaqqol ko'rish mumkin.

Zamonaviy adabiyotga mansub ko'plab qalam sohiblari ham ijtimoiy muhit va qahramon ma'naviyatiga doir o'z fikr hamda qarashlarini qushlar obrazlari timsolida badiiy ifodalamoqdalar. Bu esa allegorik obrazlar ishtirokidagi har bir asarni teran tadqiq etish, xolis baholashni adabiyotshunoslik oldidagi muhim vazifalardan biriga aylantirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. 1980
2. Alisher Navoiy. Lison-ut tayr. Toshkent. 1989
3. Aristotel. Poetika. Toshkent. 1980
4. Bobojonov M. Jahon tillari haqida. T.: 2010
5. Kalila va Dimna. Tarjimon S.G'aniyeva. Toshkent. 1966
6. Gulxaniy. Zarbulmasal. Toshkent. 1959
7. O'zbek nasri tarixidan. Toshkent. 1984
8. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. Toshkent. 2004
9. Seton-Tompson. Yovvoyi yo'rg'a. Tog'ay Murod tarjimasi. T.: 1990
10. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. Toshkent. 2005.
11. Sayfiddin Rafiddin. Majoz va haqiqat. T.: 1998
12. Quronov D. va b. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent. 2010

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934